

ASRLARGA TENGDOSH , AVLIDLARGA IBRAT”

*Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti professori
Bekova Nazzora Jo'rayevna
6-4Uzb21-guruh talabasi
Nurillayeva Munisa*

Annotasiya: Ushbu maqola so'nggi temuriy shahzodalardan Zahiriddin Muhammad Boburning jozibador shaxsi, jo'shqin hayoti va faoliyati, insoniy fazilatlari, jahon faniga qo'shgan hissasi hamda avlodlariga bag'ishlab ko'plab ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yozgani, Boburiylar davlati asoschisi, shoh va shoir Boburning ko'rsatgan qahramonliklarini har tomonlama yoritib beradi. Mazkur maqola asalsan Bobur hayotiga bag'ishlangan bo'lib, uning taxtga o'tirgandan to vafot etguniga qadar bo'lgan barcha janglari, qahramonliklari, yurgizgan siyosati hamda Jasoratlari haqida to'liq ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Shoh, Bobur, qahramon, Boburnoma, tarix, merosi,risola, Temuriylar.

Tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz, o'zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan buyuk hissasi, ma'naviyati uzoq o'tmishdan dunyoga ma'lum va mashhur bo'lib kelgani ko'zga yaqqol tashlanadi. Allohning inoyati, ajdodlarimizning aql-zakovati, mehnati va intilishlari tufayli bu zahmatkash xalq orasidan Amir Temur, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab va Nodirabegim kabi necha o'nlab allomayu daholar, olimu fozillar, shoiru rassomlar, podshohu sarkardalar yetishib chiqdilar. Millat nomini ulug'lagan allomalar xaqida gap borganda, o'zining iqtidori, aql-zakovati, murakkab taqdiri hamda ochiq ruhiy olami bilan shoir Zahiriddin Muhammad Bobur kishi e'tiborini o'ziga ko'proq tortadi. U davlat arbobi, shoir, sarkarda, olim, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos va ayni paytda xushxulq inson sifatida ko'plab ajoyib fazilatlarga ega bo'lgan. O'zbek adabiyotining buyuk siymolaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini qayta-qayta o'rganish, mutolaa qilish ummon tubidagi yangi gavharlarni izlab topish bilan barobar. Buyuk shoirning she'r va g'azallarini, ruboiy va masnaviylarini o'qir ekansiz, ko'ngilning betakror va beozor jilolariga, mehr sarchashmasining zilol mavjlariga guvoh bo'lasiz. Moziyning ko'hna sahifalari shundan dalolat beradiki, ona yurtimizda ko'plab so'z san'atkorlari, ma'rifat darg'alari kamol topdi. Ular avlodlar xotirasida mangu yashaydigan o'lmas siymolarga aylandi. Zamonlar o'zgaradi, insonlarning yashash tarzida ro'y bergani kabi dunyoqarashida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi, ammo bu zotlarning nomi barhayot qolaveradi. Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Ogahiy, So'fi

Olloyor... Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ana shu muborak nomlar bilan bir qatorda shubhasiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi ham tilga olinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z she'riyati bilan inson yuragining sohir manzaralarini kashf eta olgan. Shoir she'rlarida goh tole' yo'qligidan shilkoyat qiladi, gohida bahor chog'idagi go'zalliklarni yoshlikka qiyoslaydi va bu qiyoslardan o'zi ham zavq oladi. Bobur o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqirdi. Ta'bir joiz bo'lsa, Bobur ijodida baxt va kulfat, ishq va nafrat, visol va ayriliq, najot va ilojsizlik yonmayon yuradi. Shoir o'z ijodi vositasida o'zaro qarama-qarshi bo'lgan bu tuyg'ularning betakror mutanosibligiga erisha olgan. Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. O'zining ajoyib va yuksak qobiliyatlari bilan nafaqat qo'mondon va hukmdor sifatida, balki o'zining boy ijodiy adabiy va ilmiy meros qoldirgan olim va shoir bo'lib tarixga kirdi. Uning asarlarida, har qanday buyuk rassomga xos bo'lganidek, avlodlarning diqqatini doimo o'ziga tortadigan abadiy va o'tgan avlodni tegishli ijobiy fazilatlari mavjud. Bobur asarlarida insonning axloqi va ma'naviy kamolotiga oid masalalar ko'tarilgan. O'z asarlarida u insonning eng yaxshi axloqiy fazilatlarini qanday qilib rivojlantirish kerakligi haqida gapiradi. Uning ko'p qirrali faoliyati bugungi kunda yosh avlod uchun ma'daniy-ma'rifiy vazifasini o'taydi. Yaxshilik va insonparvarlik g'oyalari asrlar davomida o'z qadr-qimmatini va ahamiyatini yo'qotmadi. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug' ishni Z.M. Boburning o'zi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kabi asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda bo'lib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Bunday ma'lumotlar shu asrda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri ahbob» da ham bor. Hindistonda Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon hukmdorligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar va tazkiralarda Bobur haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Boburning rang-barang janrlarda yozilgan manzum asarlarining mavzu doirasi ham xilma-xildir. Bu asarlarning barchasiga xos xususiyat shundan iboratki, ular sodda tilda, ravon uslubda yozilgan bo'lib, ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy masalalardan bahs yuritadilar. Ularda Boburning shoirlik mahorati nihoyatda yaqqol namoyon bo'lganidan Boburning zamondoshi va muxlisi Mirzo Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» asarida shunday yozgan edi: «Turkiy she'riyatda Amir Alisher Navoiydan so'ng hech kim Boburga teng kela olmaydi». Bunday fikr boshqa mualliflar, jumladan, Hasanxoja Nisoriyning

«Muzakkiri ahbob» tazkirasida ham o'ziga xos tarzda bayon etilib, misollar ham keltirilgan. Bobur qisqa vaqt ichida Hindistonda siyosiy muhitini barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini obodonlashtirib, birlashtirish, savdo-sotiq ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog' - rog'lar yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Madaniy yodgorliklar qurish, karvonsaroylar barpo qilish, kutubxonalar qurish Bobur va uning o'g'illari davrida keng miqyosda yoyildi. Hindiston me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubi kirib kela boshladi. Bobur va uning hukmron avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi.

Zahiriddin Muhammad Boburni anglash ,uning mohiyatini bilish uchun Boburnoma asarini qalban his qilish kerak, bu asar qahramonlari bilan yashash kerak. «Boburnoma» Boburning jahoniy shuhratini ta'minlagan shoh asarlaridan hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini mutolaa qilar ekanmiz, u zamonasining yuksak ijodkori, yangilikka intiluvchi shaxs sifatida qaerda bo'lmasin bunyodkorlik bilan shug'ullanganiga guvoh bo'lamiz. Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur "Boburnoma" asari benihoyat qimmatli tarixiy memuar asar bo'lib, unda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston mamlakatlarining XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi ahvoli, geografiyasi, siyosiy -iqtisodiy va madaniy hayoti o'z ifodasini topgan. Boshqacha qilib aytganda, u o'rta asrlarda yoritilgan shu xalqlar tarixini izohlovchi bironta muqobili bo'lmagan tarixiy -badiiy asardir. Aslida "Boburiya", keyinchalik "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Voqeati Boburiy" va eng so'nggida "Boburnoma" nomi bilan mashhur bo'lgan bu asar Hindistonda eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan. "Boburnoma" juda ko'p tillarga, chunonchi: fors, ingliz, nemis, fransuz, rus tillariga tarjima qilingan. Asardagi markaziy obraz Boburning o'zi, albatta. Uning his tuyg'ulariga boy qalbi ko'z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston "Boburnoma" va uning muallifi haqida: "Uning shaxsiy his — tuyg'ulari har qanday mubolag'adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy na mardona, shu bilan birga jonli va ifodali. O'z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko'zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan "Boburnoma" "O'rta O'siyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir" deb yozadi. Bobur O'rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot hamda nabodot olami to'g'risida boy ma'lumot bergan. Xususan, "Boburnoma"da hindlarning etnografiysi, ilmu fani, san'at va madaniyati haqida va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida (1958-yil) qimmatli faktlar bor. Taniqli hind shoiri Mulk Roj Anand Osiyo so'zlagan nutqida: "Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O'zbekistondagi singari bizda ham "Boburnoma" g'oyat qadrlanadi." Degani bejis emas edi. Davrning juda ko'p xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va o'zbek adabiy tilining beqiyos boy imkoniyatlarini namoyish etishi bilan "Boburnoma" Alisher Navoiyning "Xamsa" siga qiyos qilgudek madaniy

obida hisoblanadi. Tarixchilar, olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan shoh va shoir shaxsiyatiga xos quyidagi yetti fazilat doimo e'tirof etib kelingan: vatanparvarlik, yuksak himmatlilik, jasurlik, boshqaruvda benazirlik, odamlarga farovonlik sog'inish, jangchilar ko'ngliga yo'l topish va adolat qilmoqlik. Boburdan juda ko'plab ilmiy, adabiy meros qolgan. U lirik she'rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarida ham asarlar yaratgan. 1522 yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. «Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U, tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan «Mufasssal» nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Javaharlal Neru va Eduard HOLDEN kabi jamoat arboblarning ham fikrlari tahsinga loyiqdir “Bobur fe'l-atvoriga ko'ra sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan, Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati, ularga mashg'ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi” degan yuksak fikrlarini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bobur va boburiylar xalqimizning buyuk farzandlaridir. Ular o'zlarining serqirra faoliyati va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar. Yangi O'zbekistonning ulug'vor g'oyalarini ro'yobga chiqarishda, uchinchi Uyg'onish davrining mustahkam poydevorini bunyod etishda buyuk Boburning boy ma'naviy merosini qayta-qayta o'rganishimiz, qalb ummonining inju gavharlaridan bahramand bo'lishimiz zarur. Bu ulkan ma'naviy meros, she'riyatning betakror va go'zal gulshani bizni saodat sari, ma'naviy yuksaklik sari yetaklashi shubhasiz. Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi. So'zimni Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu hikmatlari bilan yakunlayman – “Ko'nglingni dinlarning muhokama maydoniga aylantirma. Adolat o'rnatishda insonlarning e'tiqodiga chuqur hurmatda bo'l, Davlat uchun ko'ngulni zor etma, izzat uchun o'zungni xor etma”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 N. G.,. Nizomiddinov, Buyuk Boburiylar tarixi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2012-y
- 2 “Yulduzli tunlar” “Sharq” nashriyoti – 2016.
- 3 W.W.W.Ziyo.uz.com. kutubxonasi
- 4 Boburnoma “Sharq” nashriyoti – 2002
- 5 Boburnoma”. O'z FAN, T., 1960.
- 6 Turg'un Fayziev. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. 1996.
- 7 Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar, uch jildlik, I-III jild. 1965 –1966